

## SO'Z BOYLIGI-MILLAT BOYLIGI

Tolibayeva Durdona

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute**Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-G guruh talabasi*

*„Bugun bahorning go'zal bir kuni...  
lekin men bahorni ko'rmayapman...“*

Hakan Mengyuch

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada insonlarni yaxshilik, xushmuomalalik va to'g'ri so'zlash va so'zning insonlarga qay darajada ta'sir qilishi, go'zal so'z-go'zal xulq hamda nutq odobi, so'zlarni o'rnida qo'llash, so'zning kuchi haqida so'z yuritiladi.*

**Annotation:** *In this article, people are treated with kindness, politeness and correct speech, and the extent to which words affect people, beautiful words, beautiful behavior and speech etiquette, put words in their place. It is discussed the power of the word.*

**Kalit so'zlar:** *so'z, tarbiya, yaxshilik, xushmuomalilik, ko'ngli ochiqlik, go'zallik, to'g'ri nutq so'zlash, nutq odobi, so'zning kuchi*

**Key words:** *speech, education, kindness, politeness, open-mindedness, beauty, correct speech, speech etiquette, the power of words.*

Tarbiya, eng avvalo, insonning o'ziga qaratilganligi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, butun dunyo hamjamiyati tan olgan qadam-baqadam amalga oshirilayotgan „o'zbek modeli“ da juda to'g'ri belgilangan. Dunyoda birinchi bor insonning diqqat-e'tibori o'zlikni anglashga qaratildi. O'zlikni anglash, birinchidan, uning ozod, erkin, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo'lsa, ikkinchidan, uning o'ziga xos milliy-insoniy asoslarni anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Yuqorida sanab o'tilgan 2 sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Chunki komil inson sifatlarini, tarbiya sohasidagi bilimlarni xulosalab, mujassamlashtirsa, ular, asosan, 3 ta:

1. Ezgu niyat, fikr;
2. Ezgu so'z, xushmuomila;
3. Ezgu ish, ezgu faoliyatdan iborat.

Avestoning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" Muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi. Zardusht izdoshlarining ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora bilan boshlanadi. Avesto o'zbek, umuman O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari,

olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona manba.

Ushbu 3ta hislatning ichida 2-siga alohida to'xtalab o'tamiz. Ya'ni ezgu so'z va xushmuomilalik. So'z juda buyuk kuchdir. U voqealar va vaziyatlar oqimini o'zgartirish qudratiga ega. U yaxshini yomonga, yomonni yaxshiga aylantirishi mumkin. Ko'p so'zlardan foydalanish yaxshi va to'g'ri gapirishni anglatmaydi.

O'zingiz yoki boshqa birov, yoki biror vaziyat, yoki qanaqadir hodisa haqida gapirganingizda nima deyatgoningizga va qanday gapirayotganingizga e'tiborli bo'ling. Sizni tinglayotganning his-tuyg'ulari va idrokiga so'zlaringizning qanday ta'sir qilayotganiga diqqat qiling. Bularning barchasi sizning nutqingizga, notiqligingizga, so'zlarni ishlatish qobiliyatingizga bog'liq. Shuni yodda tutingki, siz o'z so'zlaringizni qarshingizdagilar qabul qilayotganiga qarab tanlaysiz. Tilingizdan chiqqan jummalarning kuch-qudratiga e'tibor qiling. Yana shuni ham esdan chiqarmang: agar siz so'zning qudratli kuchidan oqilona foydalana olsangiz, hayotingiz oqimini o'zgartira oladigan noyob kuchga ega bo'lasiz.

Yunus Emrening aynan ushbu mavzuga taaluqli ilhomlantiruvchi va hisyotlarga g'arq qiluvchi bir she'rini sizlar bilan baham ko'raman:

"So'zlarni bilib so'zlaganning,

Yuzini yorishtirar bir so'z.

So'zni pishirib so'zlaganning,

Ishini yorishtirar bir so'z",- deydi Yunus Emre.... Bugungi turkiy tilimizda „To'g'ri gapirgan odamning yuzi aytgan so'zlari tufayli yorishadi, qorayib ketmaydi. Bu uning o'zi yomon ahvolda tushib qolmasligini anglatadi. Yunus Emrening „so'zni pishirish“ iborasi „so'zni kamolotga yetkazish“ degan ma'noni anglatadi. Taomni past olovda pishirish uning ta'mini xohlaganidek, yoki choy past olovda qaynatilganda shirin taom berganidek so'zning „pishirish“ i va „qaynash“ i ham xuddi shunday ta'mga eshik ochadi.

Sharq xalqlari, jumladan bizning diyorumizda insonning qadri va uning manfaatlari birinchi o'rinda turadi. Dono xalqimiz o'zining xushmuomilalik, so'z boyligining yaxshiligi va noo'rin so'zlamasligi bilan boshqa xalqlarga ibrat maktabini o'taydi. Darhaqiqatdan o'tmishga nazar tashlasak, bobolarimiz: A.Navoiy, Z.M. Bobur, Amir Temur, B. Naqshbandiy, A. Avloniy, M. Behbudiy va h.k ular o'zlarining buyuk bilimlari, so'z gavharlarining boyligi, ibratomuz so'z durlari bilan butun dunyoga ibrat bo'lib kelmoqda.

„Har o'nta yaxshining ichida bitta yomon topiladi“, - deyilganidek, hamma ham birday, ya'ni bir xil xulq-atvor va dunyoqarashga ega emas. Har bir inson xoh u yaxshi bo'lsin xoh yomon bo'lsin baribir ko'nglida va yuragida ezgu so'z, ezgu amal bo'lishi kerak. Biz bu dunyoda har tomonlama yaxshi insonni topishimiz mushkul, ammo yaxshi odamlar ko'p. Inson qachonki, o'zini o'zligini anglay boshlasa, u yaxshi tarafga o'zgarib boshlaydi, so'zlash templari ham o'zgaradi, o'zgarishi ham kerak. Sababi har bir insonni so'z, yaxshi so'z bezaydi, ya'ni shirin so'z xushmuomilalik, ko'ngli ochiqlik bilan inson boshqaning ko'ngliga yo'l topadi, yoki uning kayfiyatini ko'taradi. Har birimizning qulog'imizga shirin so'z

yoqadi, bu soʻzlarni eshitganingiz sari yana eshitishni xohlaysiz. Ammo inson har doim ham yaxshi soʻzlashga odatlanmagan.

Paygʻambarimiz Muhammad Mustafu sallallohu alayhi vasallamning, „Yo yaxshi soʻzlarni ayt, yo sukut saqla“ degan hikmatlari bor. Shu boisdan ham Mavlaviylarning nutqidan, „yiqilib tushasiz, kasal boʻlasiz, magʻlubiyatga uchraysiz, pushaymon boʻlasiz“ kabi salbiy soʻzlarning oʻrnini „yiqilmaysiz, kasal boʻlmaysiz, magʻlubiyatga uchramaysiz, pushaymon boʻlmaysiz“ kabi ijobiy jumlar egallagan. Biz ham Mavlaviylarimiz va donishmandlarimiz kabi soʻz boyligimizni oshirib, goʻzal soʻzlashga odatlanmogʻimiz zarur. Bugungi kunimizga nazar tashlasak, masalan: bir necha yil tinmasdan oʻqishga tayyorlanib, ammo kerakli ballni toʻplay olmagan abituriyentga boʻldi endi shuncha tayyorlanib ham oʻqishga kira olmading, oʻqib olim boʻlarmiding demasdan, xudo xohlasa kelasi yil bundanda yaxshi tayyorlanib, oʻqishga kirib ketasan deyish, yoki boʻlmasa bir onaning musofirchilikka ketgan farzandidan 5-6oylab yoki yillab xat-xabar kelmay qolsa, boʻldi oʻgʻlingiz yomon yoʻlga kirib ketgan, sizlarni unutib ketdi demasdan, siz onajon albatda duoda boʻlaving, farzandingiz albatta qaytadi deb ularga dalda boʻlishimiz kerak. Bu yolgʻon soʻzlar emas, bu yuqorida keltirilgan 2ta shaxsga bizning qilgan yaxshiligimiz boʻlib hisoblanadi, aslo buni aldov deyish xato, sababi misol qilganlarimiz haqiqatdan ham shunday boʻlishi mumkin. Nima boʻlgan taqdirda ham biz unga yaxshilikni ravo koʻrganligimiz uchun yaxshi soʻz soʻzladik.

Xulosa oʻrnida aytib oʻtishim joizki, „Bugun bahorning goʻzal bir kuni... lekin men bahorni koʻrmayapman...“ ushbu misralar H. Mengyuchning „Qalbingiz sof boʻlsa, hikoyangiz baxtli yakunlanar“ asaridan olingan. Darhaqiqat bahor goʻzal fasl, ammo uning chiroyini koʻra olmaslik bu juda achinarli. Ammo uning goʻzalligini his etgan holda, uning goʻzalligini tuyish, his etish mumkin. Buni biz birgina tor maʼnoda koʻzi ojiz bir inson misolida koʻrib chiqdik. U bu dunyo goʻzalliklarini koʻzi bilan koʻra olmaydi, ammo nolimaydi va insonlarga ham nolib, deydiyo qilmaydi, shunchaki, „Bugun bahorning goʻzal bir kuni... lekin men bahorni koʻrmayapman...“ deb soʻz gavhari bilan barchamizni lol qoldirishi tabiiy va qalbining qanchalik sofligini isbotlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.A. Mavlonova, N.X. Rahmonqulov, B.A. Normurodova, K.O. Matnazarova - Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent-2014
2. H. Mengyuch-Qalbingiz sof boʻlsa, hikoyangiz baxtli yakunlanar“. Toshkent-2022.
3. Gʻoya va mafkura. Masʼul muharrir Q. Nazarov. Toshkent-2001
4. "Taraqqiyotning oʻzbek modeli", -I.A. Karimov. Toshkent -1992
5. Avesto. Pʻzbekcha tarjima (Asqar Mahkam tark.)-Toshkent. 2001